

## AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH MASALALARI

*Karimov Kamoliddin*

*Andijon davlat texnika Instituti  
iqtisodiyot yonalishi 4 kurs talabasi*

**Maqsadi:** Ushbu tezisning maqsadi aholining turmush darajasini oshirishning asosiy omillarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi. Aholining turmush darajasini belgilovchi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish. Turmush darajasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tizimli ravishda tahlil qilish. Mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha qabul qilingan strategiya va dasturlarning samaradorligini baholash. Aholining daromadlarini oshirish, ishsizlikni kamaytirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish. Hududiy tafovutlarni hisobga olgan holda turmush darajasini oshirishga qaratilgan kompleks yechimlarni taklif etish.

**Mavzuning dolzarbliji:** Aholining turmush darajasini oshirish masalasi har qanday davlatning barqaror rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan global iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy transformatsiyalar va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida bu mavzu yanada dolzarblik kasb etmoqda. Aholining turmush darjasini yuqori bo'lмаган sharoitda ijtimoiy keskinliklar, noroziliklar va hatto siyosiy beqarorliklar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun, aholining moddiy farovonligini ta'minlash jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlashning muhim garovidir. Yuqori turmush darjasini aholining xarid qobiliyatini oshiradi, ichki bozorni kengaytiradi va tadbirdorlik faoliyatini rag'batlantiradi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Investitsiyalarning jalb qilinishi va yangi ish o'rinalining yaratilishi ham bevosita aholining iqtisodiy

faolligi bilan bog'liq. Ta'lif olish imkoniyatlarining kengayishi, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish va sog'lom turmush tarzi sharoitlari inson kapitalining rivojlanishiga zamin yaratadi. Yuqori malakali va sog'lom aholi mehnat unumdoorligini oshiradi, innovatsiyalarni joriy etishga hissa qo'shadi va mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ayniqsa, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida aholining turmush darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tezis mazkur islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, aholining turmush darajasini oshirish muammosini ilmiy jihatdan o'rganish, uning yechimlari ustida izlanishlar olib borish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

**Asosiy qism.**Aholining turmush darajasini oshirish masalasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillarning o'zaro bog'liqligini qamrab oladi. Bu boradagi har qanday chora-tadbirlar kompleks yondashuvni talab qiladi.Daromadlar va xarid qobiliyati.Aholining daromadlari, jumladan, ish haqi, nafaqalar, ijtimoiy to'lovlar va tadbirkorlikdan olingan daromadlar turmush darajasining asosiy determinantidir. Aholining xarid qibiliyati, ya'nii uning tovar va xizmatlarni sotib olish imkoniyati bu daromadlarning real qiymatini aks ettiradi. Inflyatsiya darajasi,narxlarning o'zgarishi va valyuta kurslari xarid qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlik darajasi va bandlik.To'liq bandlikni ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mehnat bozorida talab va taklif mutanosibligini ta'minlash, yangi ish o'rinalarini yaratish va mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi turmush darajasini oshirishning muhim shartidir. Sifatli ta'lif olish imkoniyatlari inson kapitalini rivojlantirishning asosidir. Yuqori malakali ishchi kuchi mehnat bozorida raqobatbardosh bo'ladi va yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarni oshirib borish zarur.Aholining sog'lig'i

mehnat unumdorligi va hayot sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Sifatli tibbiy xizmatlar, profilaktik choralar va sog'lom turmush tarzi sharoitlarini yaratish aholining yashash davomiyligini oshiradi va kasalliklarning oldini oladi. Ijtimoiy himoya tizimi aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning minimal turmush darajasini ta'minlash va ijtimoiy keskinliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Nafaqalar, ijtimoiy yordam va imtiyozlar tizimi ijtimoiyadolatni ta'minlashga xizmat qiladi.Uy-joy sharoitlari va kommunal xizmatlar.Aholining uy-joy bilan ta'minlanishi, kommunal xizmatlarning sifati va arzonligi turmush darajasining muhim tarkibiy qismidir. Qulay va arzon uy-joylar, suv, elektr energiyasi va gazga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilishi aholining farovonligini oshiradi.Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash.Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalg qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish. Daromadlarni diversifikatsiya qilish.Faqat ish haqiga bog'liq bo'lmasdan, aholining tadbirkorlik, sarmoya va boshqa manbalardan daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish.Mehnat bozorini takomillashtirish. Ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan faol siyosat yuritish, kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, mehnat migratsiyasini tartibga solish.Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalariga investitsiyalarni oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xizmatlar sifatini oshirish.Hududiy rivojlanishga e'tibor qaratish.Hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, har bir hududning o'ziga xos salohiyatidan samarali foydalanish. Raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish.Iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va yangi imkoniyatlar yaratish.Aholi farovonligi va hayot sifatini ta'minlashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi.Fuqarolarning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ishtirokini kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash.

## Xulosa

Aholi turmush darajasini oshirish – bu nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki jamiyatda barqarorlik, farovonlik va har bir fuqaroning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholi turmush darajasiga iqtisodiy rivojlanish, bandlik darjasи, real daromadlar, ijtimoiy himoya tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining sifati kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda bu borada sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, inklyuziv o'sishni ta'minlash, hududlararo tafovutlarni qisqartirish, kambag'allikni bartaraf etish va aholining zaif qatlamlarini samarali qo'llab-quvvatlash masalalari dolzarbligini saqlab qolmoqda. Kelgusida aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun investitsiya muhitini yaxshilash, kichik va o'rtacha biznesni faol qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar bo'lishi lozim. Shuningdek, ijtimoiy sohalarda, xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida sifat va qulaylikni oshirishga alohida e'tibor qaratish, kadrlar malakasini muntazam oshirib borish muhim ahamiyatga ega